

**ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА ХОРИЈИЙ ТАЖРИБАЛАРНИ ТАТБИҚ ETISH  
AFZALLIKLARI.***Qudratova N.I.**CHDPU, San 'atshunoslik fakulteti talabasi*

**Tayanch so'zlar:** tasviriy san'at, ta'lim klasteri, Singapur tajribasi, ta'lim tizimi, zamonaviy texnologiyalar, islohotlar.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, образовательный кластер, опыт Сингапура, система образования, современные технологии, реформы.

**Key words:** visual arts, educational cluster, Singapore experience, educational system, modern technologies, reforms.

**Резюме:**

Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlarda samarali qo'llanib kelinayotgan ilg'or xorijiy tajribalarni Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimiga tatbiq etish hamda uning tasviriy san'at sohasida ta'lim sifatini oshirishga oid afzalliklari muhokama qilinadi.. Shuningdek, universitet-maktab-mahalla tizimida yo'lga qo'yilgan o'zaro hamkorlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar misolida uning samaradorligi asoslab beriladi.

**Резюме:**

В данной статье рассматривается применение передового зарубежного опыта, который эффективно используется в развитых странах, в системе непрерывного образования нашей Республики и его преимущества в повышении качества образования в сфере изобразительного искусства. На примере работ обоснована его эффективность. осуществляется на основе взаимного сотрудничества.

**Summary:**

This article discusses the application of advanced foreign experiences that are effectively used in developed countries to the continuous education system of our Republic and its advantages in improving the quality of education in the field of visual arts. Its effectiveness is justified on the example of the works carried out on mutual cooperation.

Yillar mobaynida hayotimizdagi o'zgarishlarga, yangiliklar, afzallik va qulayliklarga ehtiyojimiz seziladi. Bu albatta kelajakka intilish va rivojlanish belgisidir. Prezidentimiz biz yoshlarga juda katta e'tibor qaratgan holda OTM faoliyati va ta'lim tizimi sohasida bir qancha yengilliklar kiritdi. Ayni damda yaratilgan imkoniyatlarga havas qilsa arziydi. Sport, san'at, ilm-fandagi yutuqlarimiz jahondagi o'rnimizni yanada yuksaltirdi. Prezidentimiz kelajak

poydevorlari mustahkam bo'lishi uchun eng katta e'tiborni yangi avlod vakillariga qaratishni ta'kidladilar. Maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, litsey, kollej, san'at, musiqa maktablari va oliy o'quv yurtlarida berilayotgan ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun islohotlar olib borilmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida 2023-yil yanvar oyida yurtboshimiz Singapur shahriga tashrif buyurgan edi. Singapur Prezidenti Halima Yakub va Bosh Vazir Li Syan Lun bilan muzokaralar olib boradi. Bu jarayonda Shavkat Mirziyoyev Singapur va O'zbekiston bilan do'stlik rishtalarini mustahkamlash maqsadida "Inson kapitalini rivojlantirish va davlat boshqaruvi sohasidagi yuqori malakali kadrlar tayyorlash, Singapurning raqamli texnologiyalar sohasidagi yutuqlari hamda imkoniyatlarini tadbiq etish" kabi muhim masalar bo'yicha hamkorlik va shartnomalar tuzildi.

Bu uchrashuvdan so'ng Singapur tajribasini Respublikamiz ta'lim sohasiga tatbiq etish va uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha bir necha muhim vazifalar belgilab olindi. Bo'lg'usi o'qituvchilarning oliy ta'lim muassasalarida sifatli pedagogik ta'lim olishini ta'minlash ushbu vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan mana shu omil dunyodagi har qanday o'qitish tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Singapur maktablarida farzandlarining sidqidildan o'qishi, sifatli bilim olishi ota-onalarning eng asosiy maqsadi hisoblanadi. O'quvchilar esa diplom yoki ish uchun emas, balki Vatan taraqqiyotiga hissa qo'shish, rivojlantirish shiori ostida kichikligidan tarbiyalanadi. Singapurda tabiiy resurslar mavjud emasligi tufayli hukumat ta'lim vazirligi orqali yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga katta sarmoya kiritish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Natijada, yoshlar jamiyatning barcha jabhasida mustahkam o'rnini topishi uchun zarur ko'nikma bilan ta'minlanib kelinadi. Shuning uchun ham Singapur qisqa vaqt ichida ta'lim tizimida ilg'or yutuqlarga erishdi. Yana bir afzallik jihati shundaki, bog'cha, maktab, oliy o'quv yurtlarida eng zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanilishini ko'rishimiz mumkin.

Singapur tajribasi tahlil qilinar ekan, ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatlarga klaster yondashuvi orqali erisha oldi deb bemalol aytish mumkin. Chunki, mamlakatda qo'shimcha mablag' olish orqali klaster doirasidagi loyihalarni rivojlantirish mumkin, bunga erishish uchun esa maktablar bir-biri bilan doimiy ravishda raqobatlashadi. Tabiiyki raqobat bor joyda o'sish va rivojlanish ham bo'ladi. X. Muxammadjonova o'zining tadqiqot ishlarida Singapur umumiy ta'lim tizimi uch bosqichdan iborat bo'lib, mamlakat ma'muriy jihatdan har bir hudud 7 ta maktab klasteridan iborat bo'lgan 4 ta ta'lim hududiga bo'linganligini ta'kidlaydi.



Ushbu davlat ta'lim tizimini sinchiklab o'rgangan olim M.Q. Mengdoboieva Singapurda o'qituvchilik kasbini tanlagan nomzodlar tanlovdan 4 ta bosqichda o'tishi kerakligini aytadi. Hali maktabdagi o'qish davridan eng iqtidorli o'quvchilar kelajakdagi o'qituvchilik faoliyati uchun nomzod sifatida tanlab boriladi.

1 bosqichidagi talab bo'yicha nomzodning bolalarni yaxshi ko'rish va o'qituvchilik kasbiga qiziqishi, layoqati baholanadi.

2 bosqichida esa funksional testlar orqali savodxonligi baholanadi

3 bosqichda nomzodning shaxsiy fazilatlarini, psixologik holati ko'rib chiqiladi.

4 bosqichda OTMdagi ilk mashg'ulotlar davrida bo'lajak o'qituvchilarning yutuq va kamchiliklari nazorat qilinib, talabga javob bermaydiganlar ta'lim dasturidan chetlashtiriladi.

Shuningdek, muallif Singapurdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga asosiy sabab kadrlar tayyorlash darajasiga qo'yilgan yuqori talablar, ta'lim klasterining samaradorligi, ta'lim jarayonidagi innovatsiya va integratsiyaning yuqori darajada yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liq deb hisoblaydi. Singapurlik mutaxassislarining fikricha, bizning amaldagi o'quv dasturlarimiz mazmuni o'qituvchi va o'quvchilar uchun juda og'ir va murakkab tarzda shakllantirilgani ma'lum bo'ldi. Shu bois, ular milliy o'quv dasturini yana bir bor nazardan o'tkazish va unga kompetensiyaviy ta'limni singdirishni taklif etishmoqda.

Singapurning "Six Clouds PTE. LTD" kompaniyasi asoschisi va rahbari Richard Vun "Yangi O'zbekiston" gazetasi muhbiri bilan suhbatida Pedagoglarni qayta o'qitish va kasbiy tayyorlash tizimini markazlashtirish orqali ta'lim sifatini ko'tarish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidladi. Biz esa ularga faoliyati davomida asqatadigan mahorat va kompetensiyalarni o'rgatishga xizmat qiladi.

Uning aytishicha, Singapurda ota-onalar hamda o'qituvchilar va maktab o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatilgan. Shu bois, ta'lim tizimimiz jahonda eng oldingi o'rinlarga chiqib olgan. Maktablarda yosh o'qituvchilar tajribali pedagoglar mahoratini o'zlashtirishi uchun ustoz-shogirdlik tizimi yo'lga qo'yilgan. Shu tariqa maktab klasteri yetakchi muallimlarning o'z bilimini bir-biri bilan o'rtoqlashish hamda milliy miqyosda tajriba almashish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu darsda o'quvchilarning muammolarni mustaqil hal qila olishi, keng dunyoqarashga va XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Singapurda bu tajribadan uzoq yillardan beri foydalanib kelinyapti. Chunki ta'lim berish shunchaki kasb emas, balki birinchi galda ishtiyoqdir.



O'qituvchilik deganda uzzukun mehnat qilishni, muhim va bir oz mashaqqatli vazifani tushunamiz. Agar insonning yuragida o'qituvchilikka ishtiyoq yonmas ekan, u bu ishlarni uddalay olmaydi. Hozircha mamlakatingizda yoshlarning o'qituvchilikka ishtiyoqini aniqlab beradigan mexanizmni ko'rganimiz yo'q

Ta'lim klasteri Singapurdan tashqari AQSH, Angliya, Italiya, Rossiya, Xitoy, Vengriya, Polsha, Chexiya, Belorussiya kabi davlatlar ta'lim tizimida ham samarali qo'llanib kelinadi. Zamon talabidan kelib chiqib, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri men tahsil olayotgan Chirchiq davlat pedagogika universitetining asosiy ilmiy-tadqiqot yo'nalishi sifatida belgilangan. Qisqa muddat davomida yangi tashkil etilgan OTMlardan biri Chirchiq davlat pedagogika universitetida ta'lim klasterining nazariy va amaliy asoslarini shakllantirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilib, ushbu mavzuda anchagina ilmiy-tadqiqot ishlari bajarildi.

X. Sultanov hozirgi paytda OTM, mahalliy hokimiyat idoralari yoki boshqa ta'lim muassasalarining klaster hamkorligiga vositachilik qilish, yordam berish va qo'llab-quvvatlash kabi imkoniyatlardan oqilona foydalanishi juda muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda samarali qo'llanib kelinayotgan ilg'or xorijiy tajribalarni Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimiga tatbiq etish, tasviriy san'at yo'nalishida ham ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Klaster yondashuvi vositasida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali ta'limning fanga, fanning ishlab chiqarishga "xizmat qilishi"ga erishishimiz juda muhim vazifa sanaladi. Bu esa OTMdagi ta'lim mazmunini zamon talablariga muvofiq takomillashtirish zaruratini paydo qilmoqda.

Mamlakatimiz rahbari va universitet tomonidan oldinga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, San'atshunoslik fakultetida ta'lim va tarbiya klasterining maqsadli faoliyatini amalga oshirish uchun "universitet-maktab-mahalla" tizimida ham o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

2019 yildan buyon "Tasviriy san'at va dizayn" kafedraasi tashabbusi bilan umumta'lim hamda musiqa va san'at maktablari o'qituvchilari bilan hamkorlikda "Pedagogik sinergiya" ilmiy-amaliy seminari tashkil etib kelinadi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni pedagogika va tasviriy san'atga qiziqtirish maqsadida maktab o'quvchilari qatnashadigan KAMALAK-ART festivali muntazam o'tkazib kelinmoqda. San'atshunoslik fakultetida "universitet-maktab-mahalla" tizimida maktab o'quvchilari ijodiy faoliyat bilan uchun talabalar rahbarlik qiladigan mini to'garaklar ishlab turibdi. Shuningdek, mahalladagi o'quvchilar va vaqtincha ishsiz yoshlarni ijodkorlikka yo'naltirish maqsadida mana shu yil mahallalarda 2 ta Artstudio markazi tashkil etildi.



Bu orqali ilk yoshligidanoq ijodkorlik va innovatsion yangilikka moyilligi bor o'quvchilarning ijodiy faoliyati Rag'batlantirilib, juda ko'plab iqtidorli o'quvchilarning universitetga o'qishga qiziqishi, seleksiya ishlari amalga oshirilishiga olib kelmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda ta'lim sifatini yanada takomillashtirish davlatimizning eng ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Bu islohotlarga qo'shimcha qilib o'z fikrimni aytadigan bo'lsam, bir natijaga erishish uchun tinmay mehnat va aynan shu sohada fidoyilik talab qilinadi. Malakali mutaxassis yetishib chiqishi uchun bilimlar faqat shu sohaga yo'naltirilishi kerak. YA'ni bizga berilayotgan bilimlar kelajakda o'zimiz tanlagan kasbga yo'naltira olishi, bu sohada yetuk kadr bo'lin yetishish uchun xizmat qilishi kerak. Dunyoda bilimlar ko'p, ammo o'z sohamizning ustasi bo'lsak, ko'zlangan natijaga erishishimiz va yanada yangi bilimlarni kashf etishimiz mumkin deb o'ylayman.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda samarali qo'llanib kelinayotgan ilg'or xorijiy tajribalarni Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimiga tatbiq etish, tasviriy san'at yo'nalishida ham ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Universitet-maktab-mahalla tizimida yo'lga qo'yilgan o'zaro hamkorlik natijasida ta'lim va tarbiya klasterining maqsadli faoliyati amalga oshiriladi.

#### Adabiyotlar:

1. Қудратова Н.И Олий таълим тизимида дарс сифатини такомиллаштириш механизмлари. 332-б.
2. Хадичаксон, М. (2022). Сингапур талими ва унинг озига хос юқалиши. инновационные разработки и исследования в образовании, 1 (11), 38-43. Получено с <https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/269>.
3. Менгдобилова М.Қ. Сингапур таълим кластери – мамлакат тараққиётининг муҳим омили // Педагогик таълим кластери: муаммо ва ечимлар мавзусидаги халқаро конференция/ Чирчик 2021. -155-159 б.
4. Мадиева Р. Richard VUN: “Та’лим берish kasb emas, ishtiyoqdir!” Xalqaro hamkorlik7 Dekabr 20221432.
5. Султанов Х. Кластер усули орқали тасвирий санъат таълимини интеграциялаш имкониятлари //ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ 2024, 4. Ҷ31+41 б.
6. Султанов Х.Э. Узлуksиз таълим тизимида педагогик таълим инновацион кластерининг зарурияти // «Замонавий таълим» илмий-амалий оммабоп журнали, 2020. №8. - Б. 16-23.
7. Султанов Х (2023, Десембер). Мустақил талимни ташкил этиш орқали талабалардаги касбий ва иждодий қобилиятларини фаоллаштириш.
8. Мухаммаджонова, Х. (2023). Singapur va finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va muvaffaqiyati. Interpretation and Researches, 1(1). <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/591>
9. Бердиев, Д (2024). Кластер ёндашувига асосланган ўқитувчиликнинг талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашдаги аҳамияти.